

AVESTO-MILLIY QADRIYATLARIMIZ NAMUNASI

Xolova Svetlana To'ra qizi

Tarix va ta'lim fakulteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18390849>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Zardushtiylikning paydo bo'lishi, din sifatida shakllanishi, Avesto kitobida yoritilgan odob-axloq masalalari, tarbiyaviy ahamiyati, xalqlarning madaniyati, urf-odat va udumlari haqida so'z boradi. Markaziy Osiyo hududlarida Zardushtiylik dini va Avesto kitobi qanchalik muqaddas sanalgani va qadrlangani aytiladi. Maqolada Avesto-o'lkamiz hududi haqida geografik ma'lumotlar, milliy, diniy qadriyatlar, marosimlarlar va urf-odatlar haqida yoritib berilgan. Milliy qadriyatlar hozirgacha saqlanib qolinganligi va urf-odatlarimizga aylanib ketganligi-bu Avesto xalqlarning milliy va va tafakkurini rivojlantirganligini ham ko'rsatadi. Zardushtiylik dinining asosini ezgulik, yaxshilik, mehr va muhabbat tashkil etishi ham tahliliy ravishda yoritilgan. Ushbu ish Avestoning milliy qadriyatlarimizda tutgan o'rni va milliy qadriyatlarini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Avesto, Zardushtiylik dini, urf-odat, kitob, Iskandar, nask, 12 ming qoramol terisi, milliy ong, geografik ma'lumotlar marosimlar, qadriyatlar, Ahura Mazda, Mirsodiq Ishoqov, Avesto Yasht kitobi, dehqonchilik, bayramlar, Navro'z, Mehrjon, ezgulik, chorvachilik, Abu Rayhon Beruniy, asarlar, udum, tarix, Xorazm muzeyi, madaniy ta'sir.

Kirish. O'rta Osiyodagi eng qadimiy yozma manba sanalgan Avesto-bir necha ming yillik tarixga ega. Ushbu yozma manba ajdodlarimizning qadimgi hayoti, yashash tarzi va ma'naviyati haqida qimmatli ma'lumotlar beradi Avestoning jamlanishi uzoq va mashaqqatli jarayon bo'lgan.

Arablar bosqinidan so'ng islom dinining keng tarqalishi Zardushtiylikni siqib chiqargan bo'lsa-da, bu din butunlay yo'q bo'lib ketmagan. Buning sababi o'lkamizda islom dinidan oldin Zardushtiylikka e'tiqod qilinishi va bu din ichida yashash odatining kuchli bo'lishidadir.

Zardushtiylik dini qonun-qoidalarr, marosimlari va urf-odatlari bilan boshqa dinlardan farq qiladi. Bu din ezgulik va ezgulikka intilish bilan mashhur bo'lib, uning ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amallari insoniyatni ma'naviy poklikka yetaklaydi.

Tadqiqot usullari va materiallari. Olimlarning ta'kidlashicha, Avesto bir necha yillar davomida o'rganilgan hamda hali ham izlanishlar olib borilmoqda. Avesto so'zining o'zagi «sto» bo'lib, «o'rnatilgan», muqarrar qilingan qonun-qoidalar ya'ni hayotning asosiy yo'riqnomasi ma'nosini bildiradi¹. Kitob mill.avv. 1 ming yillikning birinchi choragida bir necha yuz yillar davomida shakllangan va taxminan 2700 yil ilgari birinchi marta tizimga kiritilgan.

Zardushtiylikning muqaddas kitobi - Avestodir. Zardushtiylikdagi Bosh Xudo - Ahura Mazda va Zardushtning savol-javoblaridan iborat bo'lgan bu kitob ko'plab qismlardan tashkil topgan. Podsho Doro ibn Doro xazinasida Avestoning 12 ming qoramol teriga tilla bilan bitilgan nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarni vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o'ldirgan vaqtida uni yondirib yubordi. Shuning uchun o'sha vaqtdan beri Avestoning beshdan uchi yo'qolib ketdi.

Avesto o'ttiz nask edi. Majusiylar qo'lida chamasi 12 ming nask qoldi.²

¹ Avesto Yasht kitobi. Mirsodiq Ishoqov tarjimasi. Sharq nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati Toshkent 2001

² Abu Rayhon Beruniy Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar Toshkent Fan nashriyoti 1968

Shunga qaramay, yetib kelgan qismlari o'zining ma'naviy, axloqiy va umumbashariy qadriyatlari bilan ajralib turadi. Avesto nafaqat urf-odatlar va marosimlar, balki geografik ma'lumotlar hamda ayrim tarixiy shaxslar haqida ham ma'lumot beradi. Asar qadimgi xorazmiy, so'g'diy va baqtriya madaniyatlari tarixini o'rganishda muhim manba hisobladi³. Avestoning sharhi haqida mashhur tarixchi olim Mirsodiq Ishoqovning «Avesto Yasht kitobi» asari talabalar uchun muhim qo'llanma sifatida xizmat qiladi. Avesto kitobi quyidagi 4 ta qismdan iborat.

- Yasna- diniy marosimlar
- Yashtar- qahramonlar va xudolarga bag'ishlangan
- Visparad- marosim qo'shimchalari
- Vindedad- diniy-huquqiy qonun qoildalalar

Avesto-jahon madaniyatining, xususan, Eron va Markaziy Osiyo xalqlarining Zardushtiylik diniga e'tiqod qiluvchilarning tarixiy madaniyati va qadriyatlarini yoritib beruvchi qadimiy va noyob manba sifatida bir qancha muzey va xorijiy davlatlar kutubxonasida saqlanadi.

Xususan, Xorazmda ham Avesto haqidagi tarixiy eksponatlar va qo'lyozma parchalari saqlanadigan "Avesto muzeyi" mavjud.

Natijalar va muhokama. Avestoning har bir qismi Zardushtiylik ta'limotining aynan bir jihatini yoritadi hamda diniy, axloqiy, huquqiy, madaniy va ma'rifiy qarashlarini o'zida mujassam etadi. Zardushtiylik marosimlari, jumladan, Navro'z va Mexrjon bayramlarida ona zaminga, dehqonchilik, chorvachilik va Vatanga bo'gan muhabbat, ulkan qudrat yaqqol namoyon bo'ladi.

Navro'zning kelib chiqishi haqida ko'plab afsona va rivoyatlar mavjud⁴.

Shuningdek, o'zbeklarda to'y marosimlardagi urf-odatlar- kuyov tomondan kelgan mehmonlarga chopon kiydirish va belbog' bog'lash yoki kelin tomondan kelgan mehmonlarga to'n kiydirish- Zardushtiylikdan qolgan qadimiy urf-odatlardan biridir. Bu odat mehmonlarga hurmat va ularni oilaga qabul qilish ma'nosini bildirgan. Ahuramazdanin qonunlariga ko'ra, jamoa o'rtasida adolatni ta'minlash va savobli amallarni ko'proq bajarish Zardushtlarning eng oliy maqsadi bo'lgan. Avesto kitobining g'oyaviy boyliklari, ma'naviy ta'siri va qadimiy falsafasi asrlar davomida yashab kelmoqda. Zardushtiylik tamoyillari uch asosiy printsipga tayangan: yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi amal.⁵ O'zbek xalqining mehmondo'st xalq ekanligi bu milliy qadriyatlarimizning yillar davomida saqlanib qolgan ezgu amallaridan biri deyish mumkin. Hech qaysi millatning urf-odatlari o'z-o'zidan paydo bo'lib, o'z-o'zidan yo'qolib ketgan emas. Bu qadriyatlar yillar davomida shakllanadi, sayqallanadi va milliy an'anaga aylanadi. Shu jumladan, Avesto ham bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Xulosa. Avesto odob-axloq, ilm, tartib-intizom va hurmat kabi qadriyatlarni o'zida mujassam etgan va kelajak avlod uchun ham foydali manba bo'lib xizmat qilgan. Shu sababli bu kitobni milliy qadriyatlarimiz namumasi deb atash mumkin. Ushbu kitobga faqatgina tarixiy meros sifatida emas, insoniyat o'z hayotida muhim dasturamal qo'llanma sifatida amal qilishi- o'sib kelayotgan yosh avlodning Vatanga muhabbat, mehr, tarbiya va odob-axloq kabi fazilatlarining shakllanishida katta ta'sirga ega.

³ Abu Rayhon Beruniy Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar Toshkent Fan nashriyoti 1968

⁴ Azamat Ashirov Avestoda meros va marosimlar Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti Toshkent 2001

⁵ Homidov Homidjon. Avesto fayzlari Toshkent Nashr 2001

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirsodiq Ishoqov tarjimasi. "Avesto Yasht kitobi".Sharq nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent 2001.
2. Abu Rayhon Beruniy. "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar"/ "Tanlangan asarlar".Toshkent Fan nashriyoti 1968.
3. Azamat Ashirov."Avestoda meros va marosimlar".Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti Toshkent 2001.
4. Homidov Homidjon. "Avesto fayzlari".Toshkent nashr 2001.